

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
**Mamlakatimizda yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadigan yer solig‘i
hisobotlarini topshirish tartibi**

DEXQONOV SANJARBEK ODILJON O‘G‘LI

dexqonovsanjarbek67@gmail.com

Bank-Moliya Akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya: Yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadigan yer solig‘i iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, mamlakatimizda yer resurslaridan samarali foydalanish va davlat budgetini to‘ldirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu soliq turi, asosan, yuridik shaxslar tomonidan, ularning balansida mavjud bo‘lgan yer maydonlari uchun to‘lanadi va bu orqali mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim moliyaviy resurslar shakllantiriladi. Ushbu tadqiqotda, yer solig‘ining hisobotini topshirish tartibini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: yuridik shaxs, yer solig‘i, soliq hisoboti, soliq bazasi, soliq davri, soliq to‘lovchilari, yer maydoni.

Annotation: Land tax paid by legal entities is an important component of economic policy and plays an important role in effective use of land resources in our country and filling the state budget. This type of tax is mainly paid by legal entities for the land areas on their balance sheets, and through this, important financial resources for the country's economy are formed. In this study, we will consider the procedure for submitting a land tax report.

Key words: legal entity, land tax, tax report, tax base, tax period, taxpayers, land area.

Аннотация: Земельный налог, уплачиваемый юридическими лицами, является важной составляющей экономической политики и играет важную роль в эффективном использовании земельных ресурсов в нашей стране и наполнении государственного бюджета. Этот вид налога в основном уплачивают юридические лица за земельные участки, находящиеся на их балансе, и за счет этого формируются важные финансовые ресурсы для

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

экономики страны. В данном исследовании мы рассмотрим порядок сдачи отчета по земельному налогу.

Ключевые слова: юридическое лицо, земельный налог, налоговый отчет, налоговая база, налоговый период, налогоплательщики, земельная площадь.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i davlat budgetining to‘lishida, yer resurslaridan samarali foydalanishda va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan soliq turidir. Ushbu soliqning hisoblash, to‘lash tartibi va hisobotlarni taqdim etish bo‘yicha qoidalar aniq belgilangan va soliq to‘lovchilarga o‘z majburiyatlarini bajarishda yordam beradi. Ushbu tezis orqali yer solig‘i tizimining asosiy jihatlari, hisoblash va to‘lash tartiblari, shuningdek, hisobotlarni taqdim etish muddati va qoidalarining umumiy tahlili ko‘rib chiqiladi.

Soliqning hisoblash tartibi muhim muammolarni o‘z ichiga oladi, chunki bu yer solig‘ining adolatli va aniq hisoblanishi uchun zarur. Soliq har bir soliq davrining 1-yanvariga bo‘lgan holatga ko‘ra hisoblablanadi. Bu, yer solig‘ining to‘g‘ri hisoblanishi uchun belgilangan vaqt oralig‘ini ifodalaydi, chunki yerning qiymati, foydalanish maqsadi va boshqa omillar soliq bazasiga bevosita ta’sir qiladi. Yuridik shaxslardan olinadigan soliq summasi, ularning yer uchastkalariga nisbatan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqib, mustaqil ravishda aniqlanadi. Agar soliq bazasi yoki hisoblab chiqarilgan soliq summasi soliq davri mobaynida o‘zgarishi mumkin bo‘lsa, yuridik shaxslar bu o‘zgarishlarni soliq organiga aniqlashtirilgan hisobot orqali bildirishi lozim. Bu, soliq tizimining adolatli ishlashini ta’minlaydi va soliq to‘lovchilarning majburiyatlarini to‘liq bajarishlariga yordam beradi.

Soliq hisobotlarini taqdim etish bo‘yicha muddatlar soliq to‘lovchilar uchun aniq belgilangan. Hisobotlar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun joriy soliq davrining 20-yanvaridan kechiktirmay, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun esa 1-maydan kechiktirmay taqdim etilishi lozimligi Soliq kodeksida bekgilangan. Shuningdek, soliq davri davomida qishloq xo‘jaligi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ekinorlarining umumiy maydonida va tarkibida o‘zgarishlar yuzaga kelgan yuridik shaxslar aniqlashtirilgan soliq hisobotini joriy yilning 1-dekabriga qadar taqdim etishi kerak. Bu muddatlar soliq to‘lovchilarni hisobtlarni o‘z vaqtida taqdim etishga undaydi va soliq organlariga o‘z vaqtida ma’lumotlarni qayta ishslash imkonini beradi.

Yer uchastkalariga doir ma’lumotnomalar soliq organlariga yer uchastkalarining turini va holatini aniq belgilash imkonini beradi. Yuridik shaxslar joriy soliq davrining 20-yanvaridan kechiktirmay soliq solish obyekti hisoblanmaydigan yer uchastkalari to‘g‘risida ma’lumotnomalarni taqdim etishlari kerak. Ko‘p kvartirali uylarda joylashgan turar joy bo‘lmagan ko‘chmas mulk obyektlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalari uchun soliq ko‘chmas mulk obyektining qavatlar soniga bo‘lingan maydonidan kelib chiqib hisoblanadi. Ushbu ma’lumotnomalar soliq organlariga yer uchastkalarining haqiqiy holatini aniqlash va soliq summalarini adolatli hisoblash imkonini beradi.

Soliq to‘lash tartibi ham soliq to‘lovchilarning majburiyatlarini bajarishda muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha soliq to‘lash tartibi aniq belgilangan: aylanmadan soliq to‘lovchilar yillik soliq summasining to‘rtadan bir qismini har chorak uchinchi oyining 20-sanasidan kechiktirmay to‘lashlari kerak. Aylanmadan soliq to‘lovchi bo‘lmagan soliq to‘lovchilar esa yillik soliq summasining o‘n ikkidan bir qismini har oyning 10-sanasidan kechiktirmay to‘lashlari lozim. Yanvar oyi uchun to‘lov 20-yanvardan kechiktirmay amalga oshiriladi. Agar soliq davri davomida soliq to‘lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelsa, ushbu summani o‘ttiz kundan kechiktirmay to‘lash talab etiladi.

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha soliq to‘lash tartibi, hisobot yilining 1-sentabriga qadar yillik soliq summasining 30 foizi va 1-dekabrga qadar soliqning qolgan summasini to‘lashni o‘z ichiga oladi. Bu tartib soliq to‘lovchilarga yil davomida soliq summasini to‘liq to‘lash uchun qulay imkoniyatlar yaratadi va davlat byudjetining barqaror to‘lishini ta’minlaydi.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining hisoblash va to‘lash tartibi,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

shuningdek, hisobotlarni taqdim etish bo'yicha qoidalar soliq to'lovchilarga o'z majburiyatlarini aniq va o'z vaqtida bajarish imkonini beradi. Hisoblash usullari va to'lov muddatlari qonunchilikda belgilangan me'yorlarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi va bu soliq tiziminingadolatli ishlashini ta'minlaydi. Soliq to'lovchilar o'z vaqtida va aniq ma'lumotlarni taqdim etish orqali soliq majburiyatlarini bajarishi, davlat byudjetining to'lishini ta'minlashi va yer resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlashga hissa qo'shishi kerak. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'inining samarali boshqarilishi vaadolatli hisoblanishi iqtisodiy barqarorlikni oshirishi, ekologik holatni yaxshilashi va davlat byudjetining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi..

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.
2. Bazarov V.B., Vanchikova S.P. Ekonomicheskaya Sistema mongolskoy imperii. Jurnal VLAST. 2015 g. № 6
3. Niyazmetov I.M. Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: —Moliya, 2016.– 192 b.
4. Qodirjon o'g'li, T. B. (2024). SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 151-153.
5. Ogli, T. B. Q. (2021). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARNING TABIIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA ERISHISHLARIDA SOLIQLARNING TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(1), 246-250.
6. Turanboyev, B. (2024). O'ZBEKISTON FOND BOZORIDA AKSIYALAR SAVDOSINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI TAHLILI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 5-8.
7. Turanboyev, B. (2024). ILG'OR XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA ELEKTRON TIJORAT FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISHNI

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 1-4.

8. Boburjon Turanboyev Qodirjon o‘g‘li, & Mamasoliyev Javlonbek Ortiq o‘g‘li. (2023). MAMLAKAT YALPI ICHKI MAHSULOTIGA SOLIQ TURLARINING TA’SIRI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 53–60.